

Magistrlar ishlab chiqarish korxonalarida

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq xo'jaligi mashinalari" kafedrasida professor-o'qituvchilar va 5A430100 -Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi magistrantlari "O'zagrotexsanoatxolding" AJ va uning tizimidagi Toshkent qishloq xo'jalik texnikasi zavodi, Qishloq xo'jaligi mashinasozlik konstruktorlik-texnologik markazi hamda «UzCLAASAgro» qo'shma korxonasi tashrif buyurishdi. U yerda qishloq xo'jaligi mashinalarini loyihalash, ishlab chiqish, tadqiq qilish va ishlab chiqarishga joriy etish ishlari, «UzCLAASAgro» qo'shma korxonasi ishlab chiqarayotgan yangi qishloq xo'jalik texnikalari bilan tanishishdi. Mashinasozlik korxonalari mutaxassislari bilan fikr almashib, o'zaro zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov